

Sirdaryo viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


2025-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
- II. Sirdaryo viloyati qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida
- III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish
- IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni
- V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 1 690,8 mlrd so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 1 508,0 mlrd so'mni, o'rmon xo'jaligi – 153,5 mlrd so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 29,3 mlrd so'mni tashkil qildi.

Sirdaryo viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'sish sur'ati



II. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida

2025-yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Boyovut (276,8 mlrd so'm), Sayxunobod (241,8 mlrd so'm), Sardoba (209,9 mlrd so'm), Sirdaryo (203,0 mlrd so'm), Guliston (197,2 mlrd so'm) va Mirzaobod (174,6 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Shirin (9,5 mlrd so'm), Yangiyer (11,0 mlrd so'm) va Guliston shaharlarini (58,0 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, % da
Sirdaryo viloyati	1 690,8	104,1
Guliston shahar	58,0	103,9
Shirin shahar	9,5	115,9
Yangiyer shahar	11,0	119,6
<i>tumanlar:</i>		
Oqoltin	156,9	102,4
Boyovut	276,8	104,4
Sayxunobod	241,8	106,7
Guliston	197,2	103,1
Sardoba	209,9	104,0
Mirzaobod	174,6	105,1
Sirdaryo	203,0	102,3
Xovos	152,1	102,3

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati tahlil qilinganda, yuqori o'sish sur'atlari Yangiyer (119,6 %), Shirin shaharlari (115,9 %), Sayxunobod (106,7 %), Mirzaobod (105,1 %) va Boyovut (104,4 %) tumanlarida qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan Xovos (102,3 %), Sirdaryo (102,3 %), Oqoltin (102,4 %), Guliston tumanlari (103,1 %) va Guliston shahrida (103,9 %) esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish


2025-yilning yanvar-mart oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 1 478,9 mlrd so'mni yoki 2024-yilning mos davriga nisbatan 103,8 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 121,2 mlrd so'mni (103,8 %), chorvachilik mahsulotlari 1 357,7 mlrd so'mni (103,8 %) tashkil qildi.

Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Boyovut (251,3 mlrd so'm), Sayxunobod (218,9 mlrd so'm), Sardoba (197,6 mlrd so'm) va Sirdaryo (175,5 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Shirin (8,3 mlrd so'm), Yangiyer (9,4 mlrd so'm) va Guliston shaharlarini (48,1 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Yangiyer (120,4 %), Shirin shaharlari (116,4 %), Sayxunobod (106,6 %) va Boyovut (104,3 %) tumanlarida qayd etildi. Xovos (102,0 %), Sirdaryo (102,2 %) va Oqoltin (102,2 %) tumlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 82,1 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 11,4 % fermer xo'jaliklariga, 6,5 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Boyovut (232,0 mlrd so'm), Sayxunobod (200,7 mlrd so'm), Sardoba (186,5 mlrd so'm), Sirdaryo (158,2 mlrd so'm) va Guliston (148,5 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Shirin (6,8 mlrd so'm), Yangiyer (9,2 mlrd so'm) va Guliston shaharlarini (47,7 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Yangiyer (135,2 %), Shirin shaharlari (107,0 %), Sayxunobod (106,8 %), Boyovut (104,2 %) tumanlarida qayd etildi. Xovos (101,9 %), Sirdaryo (102,1 %), Oqoltin (102,1 %) va Guliston (102,7 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2025-yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 16 270,0 tonna go'sht, 61 557,0 tonna sut, 42 720,0 ming dona tuxum, 119 tonna qirqib olingan jun yetishtirildi va 1 188,5 tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,7 % ni, sog'ib olingan sut – 105,0 % ni, olingan tuxum – 100,8 % ni, qirqib olingan jun – 104,4 % ni hamda ovlangan baliqlar – 113,2 % ni tashkil qildi.

2025-yil yanvar-mart oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan 4,5 % fermer xo'jaliklari hissasiga, 86,5 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 9,0 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.



Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning 9,9 % fermer xo'jaliklari, 82,8 % dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 7,3 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

**2025-yil yanvar-mart oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar**

	Yanvar-mart 2025-y.	O'sish sur'ati, % da
Go'sht (tirik vaznda), tonna	16 270,0	103,7
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	733,0	131,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	14 069,0	100,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1 468,0	131,5
Sut, tonna	61 557,0	105,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	6 104,0	131,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	50 971,0	102,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	4 482,0	110,1
Tuxum, ming. dona	42 720,0	100,8
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	3 202,0	119,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	28 423,0	92,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	11 095,0	122,9
Jun, tonna	119,0	104,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	21,0	105,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	91,0	103,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	7,0	116,7
Baliq, tonna	1 188,5	113,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	248,1	104,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	53,5	102,9
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	886,9	116,5



Shu bilan birga, olingan tuxumning 7,5 % fermer xo'jaliklariga, 66,5 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 26,0 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Shuningdek, qirqib olingan junning 17,6 % fermer xo'jaliklari, 76,5 % dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 5,9 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, ovlangan baliqlarning 20,9 % fermer xo'jaliklariga, 4,5 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 74,6 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.

Hududlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari hajmi

	Go'sht (tirik vaznda), tonna	Sut, tonna	Tuxum, ming dona
Sirdaryo viloyati	16 270,0	61 557,0	42 720,0
Guliston shahar	925,3	1 756,0	3 658,5
Shirin shahar	98,2	124,1	202,2
Yangiyer shahar	161,0	117,5	171,1
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin	1 466,3	6 221,4	2 585,9
Boyovut	2 779,9	10 373,0	3 359,0
Sayxunobod	2 379,5	9 002,9	3 572,6
Guliston	1 646,6	7 688,6	3 975,1
Sardoba	2 361,6	5 773,7	12 728,3
Mirzaobod	1 490,0	6 532,9	5 214,2
Sirdaryo	1 813,6	7 640,8	3 194,3
Xovos	1 148,0	6 326,1	4 058,8

Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Guliston (19,5 mlrd so'm), Boyovut (19,3 mlrd so'm), Sayxunobod (18,2 mlrd so'm), Xovos (17,8 mlrd so'm) va Sirdaryo (17,3 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Yangiyer (0,1 mlrd so'm), Guliston (0,4 mlrd so'm) va Shirin shaharlarini (1,5 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.



Yuqori o'sish sur'atlari Shirin shahri (179,5 %), Boyovut (105,5 %), Sayxunobod (104,4 %), Guliston (104,4 %) va Mirzaobod (104,0 %) tumanlarida qayd etildi. Yangiyer shahri (9,8 %), Sirdaryo (102,8 %), Xovos (103,1 %) va Oqoltin (103,2 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan sabzavotlar hajmi

	Tonna	O'sish sur'ati, % da
Sirdaryo viloyati	1 746,0	106,2
Guliston shahar	1,0	100,0
Shirin shahar	89,4	181,0
Yangiyer shahar	2,4	5,2
<i>tumanlar:</i>		
Oqoltin	41,3	103,8
Boyovut	211,0	117,9
Sayxunobod	198,7	110,7
Guliston	431,3	106,8
Sardoba	124,0	106,3
Mirzaobod	71,2	106,4
Sirdaryo	514,4	102,4
Xovos	61,3	103,9

Yetishtirilgan sabzavot umumiy hajmining eng yuqori ulushi Sirdaryo (29,5 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Guliston (24,7 %), Boyovut (12,1 %), Sayxunobod (11,4 %), Sardoba tumanlari (7,1 %) va Shirin shahri (5,1 %) qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Guliston (0,1 %), Yangiyer shaharlari (0,1 %) va Oqoltin tumanida (2,4 %) kuzatildi.

2024-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Shirin shahri (181,0 %), Boyovut (117,9 %), Sayxunobod (110,7 %), Guliston (106,8 %), Mirzaobod (106,4 %) va Sardoba (106,3 %) tumanlarida qayd etildi.



IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2025-yilning 1-aprel holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 487 474 boshga yetdi, (2024-yilning 1-aprel holatiga nisbatan 2,0 % ga ko'p), sigirlar 165 800 boshga (3,4 % ga ko'p), qo'y va echkilar 359 149 boshga (2,8 % ga ko'p), parrandalar 4 194 776 boshga (14,9 % ga ko'p) yetdi.

2025-yilning 1-aprel holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Bosh	O'sish sur'ati, % da
Yirik shoxli qoramollar	487 474	102,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	43 958,0	112,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	419 070,0	101,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	24 446,0	102,8
shundan sigirlar	165 800,0	103,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	19 688,0	120,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	136 390,0	100,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	9 722,0	112,1
Qo'y va echkilar	359 149,0	102,8
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	65 918,0	109,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	268 400,0	100,5
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	24 831,0	112,3
Otlar	17 236,0	102,6
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	4 793,0	107,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	11 388,0	100,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1 055,0	106,8
Parrandalar	4 194 776,0	114,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	340 582,0	109,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 522 732,0	100,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2 331 462,0	128,0



2025-yilning 1-aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 9,0 % fermer xo'jaliklari hissasiga, 86,0 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 5,0 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan 11,9 % fermer xo'jaliklariga, 82,2 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 5,9 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, qo'y va echkilarning umumiy sonidan 18,4 % fermer xo'jaliklariga, 74,7 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 6,9 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 8,1 % fermer xo'jaliklariga, 36,3 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 55,6 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

**2025-yilning 1-aprel holatiga hududlar kesimida
chorva mollari va parrandalar bosh soni**

	Yirik shoxli qoramollar	Qo'y va echkilar	Parrandalar
Sirdaryo viloyati	487 474	359 149	4 194 776
Guliston shahar	15 641	11 908	911 250
Shirin shahar	4 399	4 049	17 060
Yangiyyer shahar	6 022	7 526	111 170
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin	43 299	31 782	343 273
Boyovut	81 164	67 523	261 814
Sayxunobod	77 086	38 555	237 811
Guliston	54 830	28 290	217 044
Sardoba	43 311	38 638	661 218
Mirzaobod	53 780	43 275	704 939
Sirdaryo	58 399	32 289	463 355
Xovos	49 543	55 314	265 842



V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Fermer xo'jaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

Dehqon xo'jaligi – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo'jaligi boshlig'iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo'jaligi a'zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo'jalikdir.

Tomorqa xo'jaligi – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bog'liq mehnat faoliyatidir.

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni – xo'jalik toifalari bo'yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o'z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va h.k.)

Go'sht yetishtirish – so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o'z ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sog'ib olingan sut va og'iz sutini qo'shgan holda, haqiqatda sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sog'ib olishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda jo'ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o'z ichiga oladi.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/qishloq-xo-jaligi-va-ekologiya/685-qishloq-o-rmon-va-baliqchilik-xo-jaligi-mahsulot-xizmat-lari-yalpi-ishlab-chiqarishini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Qishloq xo'jaligi va atrof-muhit
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
M.Egamberdiyev
67 236-70-00 (2110)
